



**MIRIY G‘AZALLARI TAHLILI: BADIY VA G‘OYAVIY
XUSUSIYATLARI**

Esanova Maysara Abdullayevna

*(Qarshi shahar 27-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
Osiyo Texnologiyalar Universiteti magistiranti)*

esanovamaysara1@gmail.com

ANNOTATSIYA: Maqolada 1830-1898 yillarda yashab ijod qilgan Ochildimurod Ne‘matilla o‘g‘li Miriy g‘zallarining tahlili berilgan. Miriyning hayoti va faoliyatiga oid chizgilar, uning g‘azallaridan namunalar keltirilgan. Xususan, Miriy Alisher Navoiyni g‘oyibiy ustoz sifatida tan olishi, shuningdek, uning g‘azallaridan ilhomlanishi bayon etilgan. Chunonchi, Navoiyning “Meni men istagan” g‘azali va Miriyning “Ul oykim zulfining” g‘azalining o‘zaro uyg‘unlikdagi qiyosiy tahlili keltirib o‘tilgan. Ya‘ni, mumtoz shariyatimizning XIX asrda ham miriyona tarzidagi ifodasi o‘z aksini topgan.

Kalit so‘zlar: Mumtoz she‘riyat, mumtoz adabiyot, yangi davr adabiyoti, g‘azalnavislik, dostonnavislik, ishq ilohiy, tasavvuf g‘oyalari, tarjima, ocherk, publisistika, jadidchilik, hajviyot, shoir, xattotlik, tarjimon.

АННОТАЦИЯ: В статье анализируются газели Мири, сына Охильдимурода Нематиллы, жившего и работавшего в 1830-1898 годах. Представлены очерки о жизни и творчестве Мири, а также примеры его газелей. В частности, описывается признание Мири Алишера Навои как невидимого учителя, а также его вдохновение, почерпнутое из его газелей. Например, представлен сравнительный анализ газели Навои «Мени мен жирин» и газели Мири «Уль ойкими зүльфининг» в их гармонии. То есть, выражение нашего классического шариата в стиле Мири нашло отражение даже в XIX веке.



Ключевые слова: Классическая поэзия, классическая литература, современная литература, газели, эпическая поэзия, божественная любовь, мистические идеи, перевод, эссе, журналистика, джадидизм, юмор, поэт, каллиграф, переводчик.

ANNOTATION: The article analyzes the ghazals of Miri, son of Ochildimurod Nematilla, who lived and worked in 1830-1898. Sketches of Miri's life and work, as well as examples of his ghazals, are presented. In particular, Miri's recognition of Alisher Navoi as an invisible teacher, as well as his inspiration from his ghazals, are described. For example, a comparative analysis of Navoi's ghazal "Meni men zhirin" and Miri's ghazal "Ul oykimi zulfining" in their harmony is presented. That is, the expression of our classical Sharia in the Miri style was reflected even in the 19th century.

Key words: Classical poetry, classical literature, modern literature, ghazal writing, epic writing, divine love, mystical ideas, translation, essay, journalism, Jadidism, humor, poet, calligrapher, translator.

Kirish

O'zbek mumtoz adabiyoti ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, unda ko'plab buyuk shoirlar yetishib chiqqan. Ana shunday ijodkorlardan biri Miriy bo'lib, u XIX asr adabiy muhitida o'ziga xos o'rin egallaydi. Miriy ijodi, ayniqsa, uning g'azallari juda salmoqlidir. G'azal janri orqali shoir inson qalbining nozik kechinmalari, ishqiy iztiroblari va hayotiy haqiqatlarni chuqur va ta'sirchan tarzda ifodalagan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

1850-1900 yillardagi adabiy va badiiy ijodiyot bilan bog'liq masalalar doirasi XX asr 1-choragidan boshlab o'rganilgan bo'lsa[1], istiqlol yillariga kelib qayta tahlil qilishga kirishildi[2,21-49]. Ushbu davr adabiyoti bilan bog'liq masalalar, adabiyotdagi yangi janrlar va adabiy aloqalar B.Qosimovning tadqiqotlarida ko'zga tashlanadi[3,60-346]. Ochildimurod Miriy hayoti va adabiy merosini o'rganish adabiyotshunos Abdulhamid Majidiyning "Shoir Miriy" va "Miriyning boshqa asarlari to'g'risida" nomli ikki maqolasi bilan dastavval



boshlangan[4]. Shuningdek, Miriy, uning hayot va ijod yo‘li “O‘zbek adabiyoti tarixi”ning V tomida ham atroflicha bayon etilgan[5,250-266].

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada Miriyning hayot yo‘li va ijodi genezisini yoritishda *retrospektiv* uslub, Miriy badiiy va adabiy merosini bayon qilishda *qiyosiy tahlil* uslubi, Miriy ijodi va hayotiy faoliyat uyg‘unligini tahlil etishda esa *tizimlashtirish, umumiylik va xususiylik* hamda *butun va bo‘lak* uslublari qo‘llanildi.

Tahlil va natijalar

Miriy taxallusi bilan ijod qilgan, asl ismi **Ochildimurod Ne‘matilla o‘g‘li** 1830-yil [Kattaqo‘rg‘onning](#) Eshonqishloq mavzesida [dehqon](#) oilasida tavallud topgan[6]. Miriy haqida ilk Miriyshunoslardan sanaladigan Sattor Jabbor shunday deydi: “Turkiston asoratga tushganidan so‘ng uzun, og‘ir kunlarni orqasidan yangi bir ruh, yangi bir davr keldi. Bu XIX asrning oxirlariga to‘g‘ri keladi. Bu yangi davrning otasi 1898 yil vafot topgan Kattaqo‘rg‘onlik shoir Muhammad Hoji Murod o‘g‘li Miriydir. Miriy Buxoro va Samarqandda islom huquqi va qonunlarini tahsil olganidan so‘ng, Samarqandda qozilik vazifasida ishlagan” [7].

Bir vaqtning o‘zida Ochildimurod Ne‘matilla o‘g‘li Miriy o‘zbek [shoiri](#), [xattot](#), [dostonnavis](#), [tarjimon](#), [imom](#) va [qozi](#) sifatida nom qozonadi. Miriy 1839-yilda boshlang‘ich ta‘limdan so‘ng, Kattaqo‘rg‘ondagi [Naqibxo‘ja](#) va [Buxoro madrasalarida](#) ta‘lim oladi. Dastlabki g‘azallarini Roqim va [Shavqiy](#) kabi shoirlarga ergashib yozgan. Madrasani tugatib [shoir](#), donishmand va mutafakkir sifatida taniladi. Kattaqo‘rg‘on mavzeida 1888 yillarda [imomlik](#) va qozilik ham qiladi.

Miriyning mukammal [devoni](#), ikkita [bayozi](#), qator [epik asarlari](#) saqlanib qolgan. Miriy [ijodining](#) asosiy qismini uning dostonlari egallaydi. Jumladan, “Ra‘no va Zebo” (1884) dostoni [fors tilida](#) yozilgan. Miriyning [tarixiy](#) voqealar asosida yozilgan [romantik uslubdagi](#) “Qissai Salim Javhariy” (1887), “Rustam va Suhrob” (1898) va “Majdiddin va Faxruniso” (1899) dostonlarida [adolatli](#) tuzum, farovon turmush, komil inson haqidagi ilg‘or fikrlar o‘z aksini topgan. Xususan,



Miriy tomonidan amalga oshirilgan [Firdavsiyning](#) “Rustam va Suhrob” dostonining tarjimai olimlar tomonidan yuksak baholangan. Xususan, “Gulnoma”, “Choynoma” kabi [masnaviylaridagi](#) hayot haqidagi [falsafiy-estetik](#) qarashlar ifodasi alohida ajralib turadi. Bu asarlarda [sevgi](#), sadoqat, insonparvarlik, [ma’rifatparvarlik](#) g’oyalari targ’ib qilingan.

Miriy [Firdavsiy](#) “[Shohnomasi](#)”ning bir qismini va [Husayn Voiz Koshifiyning](#) “Anvori Suxayliy” asarini she’riy yo’lda [turkiy tilga tarjima](#) qilgan.

Alisher [Navoiy](#), Abdurahmon [Jomiy](#), [Sa’diy](#) va boshqa shoirlarning ayrim asarlarini [nasx](#) va [nasta’liq](#) xatlarida ko’chirgan.

Miriy o’z [g’azallarida](#) [hayot ziddiyatlari](#), turmushdagi tartibsizliklar, nohaqliklarni tasvirlagan. [Hajviy](#) she’rlarida esa riyokor qozilar va mirshablarni fosh etgan. Shoir [lirikasi](#), hajviyoti va epik asarlari yuksak badiiy [xususiyatlari](#) bilan ajralib turadi. Miriy asarlari [O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti, Samarqand Davlat Universitetining asosiy kutubxonasi](#) fondlarida saqlanadi. Ochilmurod Miriy 1899-yilda dushmanlari tarafidan uyushtirilgan fitnalar, ikki o’g’lining o’ldirtirilishi natijasida vafot etadi[8].

Miriy g’azallari mumtoz adabiyot an`analariga tayangan holda yaratilgan bo’lsa-da, unda shoirning individual uslubi, hayotiy kuzatuvlari va falsafiy qarashlari yaqqol namoyon bo’ladi. Shu bois uning ijodini o’rganish, nafaqat adabiy, balki ma`naviy, ijtimoiy jihatdan ham muhimdir.

Miriy ijodining o’ziga xosligi shundaki, uning asarlarida, Navoiyning ta’siri yaqqol sezilib turadi. Sattor Jabbor e’tiroficha: “Navoiy asil bir oiladan 1440 yil tug’ilgan. U davlat kishisi, tarixchi, olim, musiqashunos, tilchi-lisoniyatshunos va har sohada qobiliyatli, bularning hammasidan avval bir buyuk shoir edi. Undan keyin kelgan shoirlarning bari Navoiydan ilhom oldilar va hamon olmoqdalar...”[7]. Fikrlariga dalil sifatida “Miriy eski turk klassik adabiyotini yaqindan bilardi. Bilxossa ilhom, axloq va sajiyasini umumiy Turk adabiyotining buyuk dohiysi va Turkchanning ilmiy suratda mudofaachisi bo’lgan Navoiyning asarlaridan olmishdir. Hatto, Miriy g’azallarida o’qilganiga ko’ra, Navoiyni ko’p vaqtlar tushida ko’rar va



undan ta'lim olar ekan"[7] – deydi. Yana davom etar ekan, ““Navoiy qo'lim tutsa, qilsa madad”, degan bog'lamasi, uning Navoiyga ko'p sodiq bir shoir bo'lganini ko'rsatar. Miriyning Navoiyga bu sadoqati va sevgisi uni Navoiy martabasiga chiqarmasa-da (bunga muhit yo'l bermasdi), Miriy Turk adabiyotida ismi oltin kalomla yozilajak bir Turk shoiridir. Chunki u Turkistonda Ovro'po texnikasidan ilhom olarak, sevgan yurti, eli uchun ilk daf'a anglagan bir otadir. Miriyning she'rlarindagi bu ta'sir va quvvat, Turkiston madrasalarinda, muftilar orasinda bir yangilik, ya'ni “jadidlik” harakatini dunyoga keltirmishdir”[7].

O'z navbatida Sattor Jabbor Miriy ijodidagi yana bir muhim o'ziga xoslikka ham e'tibor qaratadi: “Miriyga qadar butun Turkiston - turk shoirlari Lutfiy, Navoiy, Bobur va boshqalar kabi buyuk klassiklar taqlidi bilan hayotlarini o'tkazishar, yangi original bir narsa bermadilar. Lokin klassik adabiyotni juda yaqindan tanigan va zamonining eng mashhur shoiri bo'lgan Miriy XIX asrdagi hayotning XVI asrga o'xshamasligini juda yaxshi anglab yetgan edi”[7]. Ya'ni, an'anaviy mumtoz adabiyotni o'z davriga xos bo'lgan zamonaviy adabiyot zaruriyatlari bilan omuxtalashtiradi.

Miriy g'azallari o'zbek mumtoz adabiyotining an'anaviy yo'nalishlarini, xususan Navoiy yo'lini davom ettiradi. U o'zidan oldingi shoirlar yaratgan poetik maktabdan ilhom olgan holda, g'azal janrini yangi mazmun bilan boyitgan. Shoirning g'azallarida ishqiy lirika yetakchi o'rin egallaydi, biroq bu ishq faqat shaxsiy tuyg'ular bilan cheklanmay, balki falsafiy va ramziy ma'nolarni ham o'z ichiga oladi. O'zaro g'azallar tahlili asosida ko'rib chiqamiz:

Navoiy “Meni men istagan” g'azali[9]	Miriy “Ul oykim zulfining” g'azali[10]
Meni men istagan o'z suhbatiga arjumand etmas, Meni istar kishining suhbatin ko'nglum pisand etmas.	Ul oykim zulfining har torig'a yuz xasta band etmish, Quyosh yuzluk sanamlar vola aylab mustamand etmish.



Ne bahra topqamen andinki, mendin istagay bahra, Chu ulkim, bahrayi andin tilarmen, bahramand etmas.	Bo'lung ey ahli dil voqifkim ul husn ahlining shohi, Ko'zikim sho'xroqdur, sho'xliq rasmin pisand etmish.
Netay hur-u pari bazminki, qatlim yo hayotimg'a, Ayon ul zahrchashm aylab, nihon bu no'shxand etmas.	Oyog'ing tufrog'ini istaram, o'pkamg'a zahram yo'q, Bu gulshan ichra tokim sarv qadding sar baland etmish.
Kerakmas oy ila kun shaklikim, husn-u malohatdin, Ichim ul chok-chok etmas, tanim bu band-band etmas.	Ne dey fatton ko'zungdin benasib etti ko'z uyqudin, Ne dey mijgon o'qungdin qon yoshimdin bahramand etmish.
Kerak o'z chobuki qotilvashi majnun shiorimkim, Buzug' ko'nglumdin o'zga yerda javloni samand etmas.	Desam o'ldum, kular, o'ltur desam der tongla o'lturgum, Vafosiz va'daga afsona aylab rishxand etmish.
Ko'ngul uz charx zolidin, firibin yemakim, oxir, Ajaj sarrishtasidin o'zga bo'ynungg'a kamand etmas.	Yiqilsam yo'lig'a solmas nazar, solmas nazardin ham, Yiroqroqdin yomon holimga boqib no'shxand etmish.
Ul oy o'tlug' yuzin ochsa, Navoiy, tegmasin deb ko'z, Muhabbat tuxmidin o'zga ul o't uzra sipand etmas.	Navosiz nola, afg'onsiz fig'ondin Miriy jon bergum, Bu munglug' notavon jonim g'ami hijron lavand etmish.

Miriy g`azallarida oshiq obrazi markaziy o`rinda turadi (**1-bayt**). Bunda oshiq ko`pincha iztirobda, hijron azobida bo`ladi (**4-bayt**), ammo shu bilan birga u sabrli, sadoqatli va umidvor obraz sifatida gavdalanadi (**7-bayt**). Bu holat mumtoz adabiyotidagi an'anaviy oshiq obrazining davomidir. Miriyning ijodida ishq asosiy mavzu sifatida talqin qilinar ekan, shoir ishqni inson hayotining eng muhim va eng



oliy tuyg`usi sifatida ko`rsatadi. Zero, ishq orqali inson poklanishi, ma`naviy yuksalishi keltirib o`tiladi (**3-bayt**).

Shoir ko`pincha ishqni:

- dard bu - iltifot (**1-bayt**);
- hijron bu - visol (**3-bayt**);
- nola bu - imkoniyat (**7-bayt**)

tarzida tasvirlaydi. Bu esa ishqning murakkab va ziddiyatli mohiyatini ochib beradi. Masalan, oshiqning telbalikka yetishi, ya`ni “junun” holati ishqning eng yuqori bosqichi sifatida talqin qilinadi. Bu orqali shoir ishqni oddiy tuyg`u emas, balki ruhiy holat sifatida ko`rsatadi (7-bayt).

Hijron va visol tushunchalari ham Miriyning g`azallarida muhim o`rin tutadi. Hijron – ayriliq azobi, visol esa uchrashuv baxti sifatida qarama-qarshi qo`yiladi. Bu ikki tushuncha orqali inson ruhiyati chuqur ochib beriladi.

Miriy g`azallarining badiiy qiymati ularning obrazlilik va tasvir vositalarning boyligi bilan belgilanadi (**5-bayt**). Miriy faqat ishqiy mavzular bilan cheklanib qolmay, jamiyatdagi muammolarni ham o`z g`azallarida aks ettiradi. U ayrim asarlarida adolatsizlik, riyokorlik, ikkiyuzlamachilik kabi illatlarni tanqid qiladi. Shoirning bu jihati uning ijodiga realistlik ruh bag`ishlaydi. U hayotdagi muammolarni yashirmay, balki ularni badiiy obrazlar orqali ochib beradi. Bu esa Miriyning ijodining ijtimoiy ahamiyatini oshiradi.

Xulosa va takliflar

Miriy g`azallari o`zbek mumtoz adabiyotining muhim qismi hisoblanadi. Shoir g`azallaridagi ishqiy lirika uning ijodidagi falsafiy mushohada va badiiy qiymatining ahamiyatini oshiradi: *“Navosiz nola, afg`onsiz fig`ondin Miriy jon bergum, Bu munglug` notavon jonim g`ami hijron lavand etmish”*. Shu bilan birga badiiy va ijtimoiy tanqidni ham uyg`unlashtira olganligi bilan diqqatga sazovor: *“Desam o`ldum, kular, o`ltur desam der tongla o`lturgum, Vafosiz va`daga afsona aylab rishxand etmish”*. Uning g`azallari inson ruhiyatini chuqur ochib berishi, badiiy tasvir vositalariga boyligi, ma`naviy va estetik ahamiyatga egaligi jihatidan



ham alohida ajralib turadi: *“Bo‘lung ey ahli dil voqifkim ul husn ahlining shohi, Ko‘zikim sho‘xroqdur, sho‘xliq rasmin pisand etmish”*.

Xulosa qilib aytganda, Miriy ijodi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan va adabiyotshunoslikda muhim o‘rganiladigan fenomenlardan biri bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimov G‘.K. O‘zbek adabiyoti tarixi (XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asr boshlarigacha). 3-kitob. //Darslik. T.: “O‘zbekiston”, 1966. –B. 308.
2. Qosimov B. va boshqalar. Milliy uyg‘onish davri O‘zbek adabiyoti. //Darslik. T.: “Ma‘naviyat”, 2004. –B. 22.
3. Qosimov B. O‘zbek adabiyoti va adabiy aloqalar tarixi. T.: “Fan va texnologiya”, 2008. -B. 600.
4. <https://oefen.uz/uz/documents/slaydlar/umumiy/ilmiy-mavzudagi-asarlar-sharhi-miriyning-rustam-va-suhrob-dostoni-badiiyati>
5. O‘zbek adabiyoti tarixi (Mas‘ul muharrir M.Yunosov). V tom. T.: “Fan”, 1980. - B. 420.
6. https://uzpedia.uz/pedia/miriy_kattaqorgon
7. Bahrom Irzayev. Miriy: “Turklarning umumiy Vatani Turkiston muhtalif ajnabiy hukumatlar tarafidan parchalanmish...” <https://zarnews.uz/uz/post/miriy-turklarning-umumiy-vatani-turkiston-muhtalif-ajnabiy-hukumatlar-tarafidan-parchalanmish>
8. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Miriy_\(shoir\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Miriy_(shoir))
9. <https://tafakkur.net/meni-men-istagan/alisher-navoiy.uz>
10. <tps://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/o-zbek-mumtoz-adabiyoti/ochildimurod-miriy-1830-1899>